

Uzbekistan Airways bilan biznes uchun raqamli yechimlar

2026 19 May

Vaqt – zamonaviy tadbirkorning asosiy resursidir. Biz ishbilarmonlik safarlarini tashkil etish uzoq qog'ozbozlikka aylanib qolmasligi kerakligini tushunamiz. Korporativ mijozlar va B2B-hamkorlarga aviakompaniyaning rasmiy saytida UzCard hamda Humo korporativ kartalari yordamida aviachiptalar uchun to'lovni amalga oshirish xizmati mavjudligini eslatib o'tamiz.

Onlayn xizmatimiz yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga qat'iy rioya qilgan holda chiptalarni xarid qilish jarayonini to'liq raqamlashtirish imkonini beradi:

☐ Elektron hujjat aylanishi: elektron ishonchnomani rasmiylashtirish shaxsiy ERI dan foydalangan holda onlayn tarzda amalga oshiriladi.

☐ Buxgalteriya shaffofligi: elektron hisobvara-q-faktura avtomatik tarzda shakllantiriladi va masofadan turib taqdim etiladi.

☐ Tezkorlik va xavfsizlik: yo'nalish kvitansiyasi hamda cheklar bir zumda elektron pochta g'izga yuboriladi, himoyalangan protokollar esa ma'lumotlaringiz to'liq saqlanishini kafolatlaydi.

Endi qog'oz hujjatlar uchun ofisga borish shart emas. Ishonchlilikni tanlang va muhim strategik vazifalar uchun vaqtni tejang, xodimlaringizning qulay parvozini esa O'zbekiston milliy aviakompaniyasiga ishonib topshiring.